

OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA

KIRUVCHILAR UCHUN

"XORAZM ILM ZIYO" NTM

+998995607273 raqamiga SMS yuboring.	3465PDGU* <b>Familiya Ism (Viloyat)</b> <b>*JAVOBLAR</b>
Namuna: 3465PDGU*Boltayev Anvar (Qashqadaryo)*BAADACCCAACA...	
<b>Izoh:</b>	
1) Agar sizni ism familiyagizda yoki viloyatingiz nomida <b>O',G'</b> harflari qatnashsa ularni o'rniga <b>U</b> va <b>G</b> harflarini ishlating.	
2) Harflarni faqat lotin alifbosida yozing.	
3) Repetitsion testlar faqat ko'rsatilgan sanalar uchun yaroqli. <b>15.07.2019-17.07.2019</b>	
4) Repetitsion testning sms javoblari soat <b>21:00</b> gacha qabul qilinadi.	
Natijalar: Har kuni <b>@repetitsiontestuz</b> kanalida soat <b>22:00</b> e'lon qilinadi	

SAVOLLAR KITOBI

999992

BLOKLAR:

Geografiya (3.1)  
Matematika (2.1)  
Ona tili va adabiyoti (1.1)

Test topshiruvchi:

F.I.O.

IMZO

**DIQQAT!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!

## GEOGRAFIYA

- A) To'palang B) Uchqo'rgan  
C) Shohimardon D) Irtijor
1. Xitoy, Kanada, AQSh, Avstraliya, Irlandiya, Turkiya, Gretsiya kabi davlatlarning qirg'oqlaridan qaysi foydali qazilma qazib olinadi?  
A) neft B) gaz C) neft-gaz D) toshko'mir
  2. O'rta Osiyoda AQSh manfaatlarini...  
A) o'zining samarasini berdi  
B) Rossiya manfaatlariga qarshi bo'ladi  
C) mavjud emas  
D) Turkiya va Xitoy manfaatlarini bilan to'qnashadi
  3. Shimol tomoni azimutini toping?  
A) 3600 B) 2700 C) 900 D) 1800
  4. Qishloq xo'jalik ekin maydonlari tarkibida texnik ekinlarining ulushi? (2012-yil)  
A) 44,9 % B) 41,7 % C) 37,8 % D) 51,1 %
  5. Quyi Amudaryoning maydoni qancha?  
A) 44 kv.km B) 50 kv.km  
C) 48 kv.km D) 46 kv.km
  6. O'zbekiston hududi qaysi davrda oxirgi marta suv ostida qolgan?  
A) arxei B) paleogen C) neogen D) yura
  7. Rudolf Chellenning fikricha, har qanday davlat - bu...  
A) ijtimoiy organizmdir  
B) siyosiy organizmdir  
C) geosiyosiy organizmdir  
D) geografik organizmdir
  8. Braziliya hodisasi qayerda ko'p bo'lib turadi?  
A) tog' va tog'oldi hududlarida  
B) okean va dengiz qirg'oqlarida  
C) daryo sohillarida  
D) daryo va ko'l qirg'oqlarida
  9. Bu mintaqada har kuni ertalab Quyosh yaraqlab nur sochib turadi va Yer yuzini kuchli isita boshlaydi. Tush paytlariga borib qizigan va namga to'yingan havo yuqoriga ko'tarilib, bulut hosil qiladi. Tushdan keyin esa kuchli yomg'ir yog'adi. Kechga yaqin Quyosh yana nurini socha boshlaydi bu qaysi mintaqada?  
A) Ekvatorial B) Subtropik  
C) Tropik D) subekvatorial
  10. Gekla vulqoni qaysi davlat hududida joylashgan?  
A) AQSH B) Meksika  
C) Italiya D) Islandiya
  11. Baykal ko'liga nechta daryo quyiladi?  
A) 300 ta B) 100 ta C) 200 ta D) 400 ta
  12. G'arbiy uzunlik nima?  
A) geografik nuqtalar bosh meridiandan g'arbdaligi  
B) Geografik nuqtalar  
C) geografik nuqtalar bosh meridiandan sharqda bo'lishi  
D) hammasi to'g'ri
  13. Jahonda QESlar mavjud mamlakatlarni belgilang.  
A) Fransiya, AQSH, Kanada, Rossiya, Xitoy  
B) Polsha, JAR, Kanada  
C) Xitoy, Kanada, Yaponiya  
D) Polsha, Germaniya, AQSH, Kanada
  14. Quyidagi qaysi hududdagi yaylovlardan umuman foydalanil- maydi?  
A) Ustyurt platosi B) Qarnob cho'li  
C) Qizilqum cho'li D) Surxondaryo vohasi
  15. Namangan viloyatida joylashgan GES nomi?
16. Rudamas foydali qazilmalar orasida eng muhimi?  
A) temir B) ko'mir C) yod D) osh tuzi
  17. Toshkent aglomeratsiyasida nechta shaharcha mavjud?  
A) 10 ta B) 20 ta C) 15 ta D) 30 ta
  18. Sh. Amerika tub joy aholisi qayerdan ko'chib o'tgan?  
A) Yevrosiyodan B) Afrikadan  
C) J. Amerikadan D) Yevropadan
  19. O'zbekistonda uchraydigan emdemik o'simliklar necha %  
A) 8 % B) 7 % C) 9 % D) 10 %
  20. Atmosferaning gaz tarkibi aniqlagan olim qayerlik?  
A) Britaniya B) Ispaniya  
C) Italiya D) Fransiya
  21. Tehnik ekinlardan sirasiga kiruvchi safslarning ikkinchi nomini belgilang.  
A) suvsar B) masxar C) asxar D) gulsar
  22. Sirdaryo Mirzacho'lining qaysi qismida oqib o'tadi?  
A) shimoli - sharq B) janubi - g'arb  
C) janub D) shimoli - g'arb
  23. Janubiy Amerkadagi ushbu mamlakatlar jahondagi eng yirik baliq mahsulotlari ishlab chiqaruvchi davlatlar qatoriga kiradi?  
A) Argentina, Braziliya B) Peru, Chili  
C) Argentina, Kolumbiya D) Chili, Braziliya
  24. Rotterdam porti (Niderlandiya) yuk aylanmasi?  
A) 300 mln tonna B) 200 mln tonna  
C) 240 mln tonna D) 180 mln tonna
  25. Doimiy issiq va sernam har kun tushdan keyin yomg'ir yog'uvchi iqlim mintaqasi  
A) topik B) ekvatorial  
C) arktik D) mo'tadil
  26. Qaysi shahar 60-yillarda yagona bosh reja asosida issiq iqlim va milliy an'analarni hisobga olib qurildi?  
A) Olmaliq B) Angren C) Nukus D) Navoiy
  27. Janubi-sharqiy Osiyo qaysi davlatidan boshqa regionning barcha mamlakatlari dengiz bo'yida yoki orollarda joylashgan?  
A) Laos B) Vyetnam C) Kambodja D) Myanma
  28. Qachon Usmonli turklar imperiyasi shakllandi?  
A) 1320-yilda B) 1310-yilda  
C) 1330-yilda D) 1340-yilda
  29. Geografik olimlar nima uchun Okeaniyani alohida qit'aga ajratishgan?  
A) tabiatning-rang barangligi uchun+  
B) hayvonlarning hech qayerda uchramagani uchun  
C) maydonining kattaligi uchun  
D) ko'p orollari borligi uchun
  30. Quyidagi davlatlardan qaysi biri neftni eksport etadi?  
A) Ispaniya B) Germaniya  
C) Meksika D) Yaponiya

## MATEMATIKA

31. Birinchi uchta toq son yig'indisining birinchi uchta tub son yig'indisiga nisbatini toping.  
A) 0,9 B) 0,95 C) 1 D) 0,8
32. Hisoblang:

- $\frac{0,215-1,6 \cdot 0,215}{3,45-3 \frac{12}{25}}$   
 A) -4,2 B) 4,3 C) -0,43 D) 0,43
33. Agar  $25 \leq x \leq y \leq z \leq t \leq 100$  bo'lsa,  $\frac{x}{y} + \frac{z}{t}$  ifodaning eng kichik qiymati qanday bo'ladi?  
 A) 0,2 B) 1,6 C) 1 D) 25/32
34.  $m$  va  $n$  naturallar uchun  $\sqrt{2}(n-5) + n^2 - 6mn + 17,5m = 0$  o'rinli.  $n-m$  ni toping?  
 A) 5 B) 3 C) 6 D) 2
35. Hisoblang  $\frac{1}{2+\sqrt{3}} + \frac{2}{\sqrt{3}-1} - 1$ .  
 A) 3 B) 4 C) 2 D)  $\sqrt{3}$
36.  $x^2 - 9x + q = 0$  tenglamaning ildizlaridan biri 2 ga teng. Tenglamaning barcha koeffitsiyentlari yig'indisi nimaga teng.  
 A) 6 B) 2 C) 3 D) -6
37.  $ABC$  to'g'ri burchakli uchburchakning  $AB$  gipotenuzasiga  $C$  uchidan o'tkazilgan  $CO$  mediananing  $CE$  balandlikka nisbatini aniqlang.  $BO : BE = 5 : 1$ .  
 A) 7/2 B) 2/3 C) 5/3 D) 5/2
38. Uchidagi burchagi  $45^\circ$  bo'lgan teng yonli uchburchakning yuzi  $\sqrt{2}+1$  ga teng. Unga tashqi chizilgan doira yuzini toping.  
 A)  $2\sqrt{2}\pi$  B)  $2\pi$  C)  $\pi$  D)  $3\pi$
39. Agar  $\angle PKN = 75^\circ$ ,  $PK = 5\sqrt{2}$ ,  $PM = 26$  va diagonallari orasidagi burchak  $60^\circ$  bo'lsa,  $KMNP$  parallelogramning yuzi qanday bo'ladi?  
 A) 65 B) 150 C) 120 D) 130
40. Muntazam oltiburchakka tashqi chizilgan aylana radiusi  $8\sqrt{3}$  ga teng. Uning parallel tomonlari orasidagi masofani toping.  
 A) 16 B) 18 C) 24 D) 12
41.  $(x;y)$  sonlar jufti  $\begin{cases} \frac{6x+7y}{2} - \frac{4x-3y}{4} = 2 \\ \frac{5y-2x}{3} + \frac{4x-3y}{6} = 0 \end{cases}$  sistemaning yechimi bo'lsa,  $x^2 - y^2$  qanday bo'ladi?  
 A) 0 B) 2 C) 1 D) -1
42. Agar  $\sqrt{x+3+\sqrt{x+14}} + \sqrt{x+3-\sqrt{x+14}} = 4$  bo'lsa,  $x(x+1)^{-1}$  ifodaning qiymatini toping.  
 A)  $\frac{2}{3}$  B)  $-\frac{3}{2}$  C)  $\frac{3}{2}$  D) 3
43. Agar  $a$  va  $b$  sonlar  $a > 10$ ,  $b > 16$  shartlarni qanoatlantirsa, quyida keltirilgan tengsizliklardan qaysi biri to'g'ri?  $a, b \in \mathbb{N}$   
 A)  $\frac{b}{a} > 1,5$  B)  $\frac{b-2a}{a} > 0$   
 C)  $a+b \geq 28$  D)  $a-b < 6$
44. Qancha butun son  $\sqrt{6x-x^2-4} > x-4$  tengsizlikni qanoatlantiradi?  
 A) 3 B) 2 C) 4 D) 5
45.  $x_n = 4n+8$  formula bilan berilgan ketma-ketlikning ( $x_n$ ) dastlabki o'ttizta hadining yig'indisini toping.  
 A) 2100 B) 1900 C) 1940 D) 2010
46.  $x^{\sqrt{x}} = \sqrt[3]{x^8}$  tenglamani yeching.  
 A) 1; 4 B) yechimga ega emas  
 C) 1; 2 D) -1; 4
47. Agar  $\lg 2 = a$  va  $\lg 7 = b$  bo'lsa,  $\log_{0,2} 98$  ni  $a$  va  $b$  orqali ifodalang.  
 A)  $\frac{a+2b}{a-1}$  B)  $\frac{a+b}{1-a}$   
 C)  $\frac{a+2b-1}{1-a}$  D)  $\frac{a-2b+1}{1-a}$
48. Uchlari  $A(1; 1)$ ,  $B(-2; 3)$  va  $C(-1; -2)$  nuqtalarda bo'lgan uchburchakning  $A$  va  $B$  burchaklarini toping.  
 A)  $90^\circ; 45^\circ$  B)  $60^\circ; 30^\circ$   
 C)  $45^\circ; 60^\circ$  D)  $30^\circ; 90^\circ$
49. Hajmi  $8\sqrt{3}$  ga teng bo'lgan muntazam tetraedring balandligini toping.  
 A)  $2\sqrt{3}$  B) 4 C) 3 D)  $4\sqrt{3}$
50. Agar konus asosining yuzi  $M$  ga, o'q kesimining yuzi  $N$  ga teng bo'lsa, konus yon sirtining yuzi qanday bo'ladi?  
 A)  $\sqrt{M^2 + N^2\pi^2}$  B)  $\sqrt{MN}$   
 C)  $2\sqrt{MN}$  D)  $\sqrt{\pi MN}$
51.  $y = 2 - \cos 2x$ ,  $y' = ?$   
 A)  $2\sin 2x$  B)  $4\cos 2x$  C)  $\sin 2x$  D)  $-\sin 2x$
52. Funktsiyalardan qaysilari juft hisoblanadi?  $y_1 = \frac{a^x + a^{-x}}{2}$ ;  
 $y_2 = \frac{a^x + 1}{a^x - 1}$ ;  $y_3 = \frac{x}{a^x - 1}$ ;  $y_4 = x \frac{a^x - 1}{a^x + 1}$ .  
 A)  $y_1; y_2$  B)  $y_1$  C)  $y_2$  D)  $y_1; y_4$
53. Moddiy nuqta to'g'ri chiziq bo'ylab  $S(t) = -\frac{1}{12}t^4 + \frac{2}{3}t^3 - \frac{3}{2}t^2$  qonuniyat bo'yicha harakatlanayapti. Vaqtning qaysi paytida uning tezlanishi eng katta bo'ladi?  
 A) 2,5 B) 3 C) 2 D) 1,5
54.  $f(x) = |x-1| + |x-2|$  funksiyaning qiymatlar sohasini toping.  
 A)  $[3; \infty)$  B)  $[2; \infty)$  C)  $[0; \infty)$  D)  $[1; \infty)$
55. Hisoblang  $\cos\left(\arctg\sqrt{3} + \arccos\frac{\sqrt{3}}{2}\right)$ .  
 A)  $\frac{\sqrt{3}}{2}$  B) 1 C)  $\frac{1}{2}$  D) 0
56.  $m$  dan katta bo'lmagan juft natural sonlarning yig'indisi  $x$ ,  $m$  dan katta bo'lmagan lekin 10 dan katta bo'lgan juft natural sonlarning yig'indisi  $y$  hamda  $x+y=810$  bo'lsa,  $m$  ning barcha qiymatlari yig'indisi qanday bo'ladi?  
 A) 81 B) 210 C) 83 D) 420
57.  $y^2 - ty + \frac{1}{2}t + 2 = 0$  tenglama ustma-ust tushadigan ildizlarga ega bo'ladigan  $t$  ning barcha qiymatlari yig'indisini toping.  
 A) 1,5 B) -1 C) 2 D) 1
58. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 raqamlardan foydalangan holda, nechta turli ikki xonali har xil raqamlardan iborat sonlar hosil qilish mumkin?

A) 56 B) 336 C) 42 D) 28

C) hol D) ega

59. Tekislikda 22 ta nuqta joylashgan, ulardan hech qaysi uchtasi bir to'g'ri chiziqda yotmaydi. Uchlari shu nuqtalarda bo'lgan nechta uchburchak mavjud?  
A) 3024 B) 3080 C) 1512 D) 1540
60.  $A = \{x : |x - 4| < 8, x \in N\}$  to'plamning elementlar sonini aniqlang.  
A) 4 B) 3 C) 6 D) 11

70. O'zbek atamasining unga qadar ishlatilgan turk, sart, chig'atoy singari atamalarga nisbatan tilimizda barqaror bo'lib qolishi qaysi tarixiy shaxs nomi bilan bog'liq?  
A) Temuriylar B) Chingizlar  
C) Shayboniyxon D) Qoraxoniylar
71. Noto'g'ri yozilgan so'zlar sonini toping.  
xanuz, xiylakor, hushyor, hijjalomoq, nomoyon  
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

### ONA TILI VA ADABIYOTI

61. Hokkey, muxojir, nadomat, tutiriqsiz, vakuum hashorat, fuqaro Mazkur so'zlardan nechtasi to'g'ri yozilgan?  
A) 4 tasi B) 1 tasi C) 2 tasi D) 3 tasi
62. Qaysi javobda uchta yuklama qatnashmagan gap(lar) ko'rsatilgan?  
1. Ulardan faqat birga oldirilgan suratgina yodgor qoladi, xolos.  
2. Qizning nihoyatda ta'sirlanib gapirgan fikrlariga Feruza ham bir narsa deya olmadi-ya.  
3. Xullas, hammasi yaxshi ketayotgan edi-yu, to'satdan ikkovlari ham shaharga, o'z uyiga qaytish fikriga tushib qolsa bo'ladimi.  
4. Nahot meni ham shu gapga ishonmadi deb o'ylaysiz-a?  
A) 3, 4 B) 1, 4  
C) Berilgan gaplarda uchtadan yuklama qatnashgan D) 2, 3
63. tarjimai hol, ishonchnoma, dalolatnoma Rasmiy uslubning qaysi turiga mansub?  
A) diplomatik uslub  
B) idoraviy devonxonona uslubi  
C) sof qonunchilik uslubi  
D) sof tadbirkorlik uslubi
64. Uyushiq bo'laklar guruhlanib, o'zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so'zdan keyin qanday tinish belgisi ishlatiladi?  
A) tire B) vergul  
C) nuqtali vergul D) ikki nuqta
65. Bir so'zning matn mazmunidan kelib chiqib bir necha ma'no ifodalashi qanday nomlanadi?  
A) omonimiya B) sinonimiya  
C) ko'p ma'nolilik D) antonimiya
66. Nisbiy so'zlar yordamida qaysi ergashgan qo'shma gapning qismlari bog'lanmaydi?  
A) kesim ergash gap B) hol ergash gap  
C) aniqlovchi ergash gap D) ega ergash gap
67. Ne oshiqdir, yig'lar, ko'zda yoshi yo'q?  
Ne gavadadir, ikki kiftida boshi yo'q?  
U1 ne Ko'zdir, kiprigi yo'q, qoshi yo'q,  
Ko'zlilardan yaxshi narsalar ko'rmish?  
Ushbu she'riy matn haqida noto'g'ri fikr berilgan qatorni aniqlang.  
A) O'zaro shakldosh qo'shimchalar uchramaydi.  
B) Mustaqil atash ma'nosiga ega bo'lmagan 8 ta so'z qo'llangan.  
C) Olmoshning 2 xil turi qo'llangan.  
D) 1 tagina fonetik hodisa uchraydi.
68. Noto'g'ri yozilgan so'zlar sonini toping.  
xohlamoq, hijil, xasp'o'shlamoq, shavqat, tamosha, avf  
A) 1 B) 3 C) 2 D) 4
69. Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati, - deb yozadi A.Avloniy, -yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir. Ushbu gapdagi olmoshning sintaktik vazifasini aniqlang.  
A) to'ldiruvchi B) aniqlovchi

72. Quyidagi murakkab qo'shma gap tarkibida nechta sodda gap bor?  
"Oltin makre-kamyob baliqlarning biri, dedi Edigey- dengiz tubida yashaydi, jussasi hiylagina katta, lekin uning hosiylati go'zalligida: boshidan to dumining uchigacha oltin singari tovlanib turadi, shuning uchun ham uni oltin makre deb aytishadi".  
A) 5 ta B) 8 ta C) 7 ta D) 6 ta
73. Quyidagi berilgan qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?  
A) Anzirat xola o'z-o'zidan javrab, qorong'ida ivirsib yurardi  
B) Quدرات ko'cha aylanib kelib uyga kirsar, hech zog' yo'q  
C) Zilola yodsirab, qovog'ini solib, teskari burildi  
D) Milliard yillar sari yo'l olgan avlodlarning ibtidosiman
74. Sening tug'ilgan shahringdan ayrilib yashashingga ko'zim yetmasdi, buni hammadan ham men yaxshi bilardim.  
Ushbu gapda necha o'rinda bitishuvli so'z birikmasi mavjud?  
A) 6 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 3 ta
75. Qaysi gapda sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilishi tufayli fonetik o'zgarishga uchragan so'z(lar) ishtirok etgan?  
A) Ona Vatanidan ayrilgan mirzo Bobur bir umr Vatan sog'inchi bilan yashadi, uni o'z she'rilarida, tarannum etib yashadi.  
B) Vatan osmoni ko'rpang, maysasi dimog'ingni bosib yotadigan muattar bolishingdir.  
C) Og'zaki nutqingiz yaxshi bo'lgani uchun davraga boshlovchilik qilish sizga topshirildi.  
D) Hovli etagidagi uyasidan eti borib suyagiga yopishgan qari it chayqalib-chayqalib chiqib keldi.
76. -ma, -dor, ser-, ba-, be-, -mand, -kor, -siz, -chak, -chan, -choq, -chiq, -qoq, -ag'on, -man, -ildoq, -namo, bad-, -don, -bop, -chil, xush-, -kash...  
Berilgan qo'shimchalardan nechtasi ot va sifat yasovchi qo'shimcha sifatida shakldoshlik xususiyatiga ega?  
A) 7 B) 9 C) 8 D) 10
77. Turkiy tillarni birinchi bo'lib kim tasnif qilgan?  
A) Mahmud Koshg'ariy B) Mahmud Zamaxshariy  
C) Yusuf Xos Hojib D) Alisher Navoiy
78. Quyidagi gapda yasama so'zlar soni nechta?  
Hamdardlik bir odamning qayg'u-hasratlariga achinib, o'zida ham qayg'u hosil qilishidir, lekin quruq va yuzaki hamdardlikning foydasi yo'q.  
A) 2 ta B) 3 ta C) 5 ta D) 4 ta
79. Bir oqil aytarmish: tingla, qarindosh, Siringni fosh etma, kerak bo'lsa bosh!  
Ushbu she'riy parchadagi gaplarning egasini aniqlang.  
A) oqil, qarindosh B) qarindosh, bosh  
C) oqil, qarindosh, bosh D) oqil, bosh
80. Qaysi gapda ovozigga taqlid so'z turlangan?  
A) Bolalarning qiqirlashi quloqni qomatga keltirgan edi.  
B) Tuyuqning dupuridan navkarlar bir safga chizilishgan edi.  
C) Suvning shitirlashidan uyg'onib ketdim.  
D) Shundan so'ng afg'onidan tarsaki yeganim bejiz

emasligiga - mening navkar ekanligimga ishonishdi.

81. Boshimizni bilim kuchi uyg'otsa, bo'lg'usidir bizning uchun bayram.  
Ushbu gap turini aniqlang.  
A) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap  
B) ega ergash gapli qo'shma gap  
C) hol ergash gapli qo'shma gap  
D) kesim ergash gapli qo'shma gap
82. Antuan de Sent-Ekzyuperining qaysi asari novella janrida yaratilgan?  
A) "Tungi parvoz" B) "Erkaklar zamini"  
C) "Harbiy uchuvchi" D) "Janub chopari"
83. "Yovuz niyatli kishi", "Chiqdi", "Qiyshiq oyna" asarlarining janrini toping.  
A) Doston B) Hikoya C) Pyesa D) Roman
84. Pahlavon Mahmud bir ruboiysida "nechuk kuysankim, suruding (qo'shiq) yo'q?" deb nimaga murojaat qilgan?  
A) ishq B) g'am C) shodlik D) orzu
85. Charh ranjinmu deyin, dahri shikanjinmu deyin,  
Jonima har birining javr-u jafosinmu deyin!  
Ushbu baytda qanday she'riy san'at qo'llangan?  
A) tazod B) tardi aks  
C) talmih D) tanosub
86. "Avesto"da maxsus ohanglar asosida ijro etiladigan qo'shiqlar nima deyiladi?  
A) Vendidod B) Gohlar  
C) Visparad D) Yashtlar
87. "Qisasi Rabg'uziy" asarida sahobalar Muhammad alayhissallomning ummati uchun qilgan xizmatlarini nechta qismda tadrij asosida sanaydilar?  
A) 15 qismda B) 10 qismda  
C) 18 qismda D) 20 qismda
88. O'zining yoniq she'riyati bilan kichkinagina xalqini katta olamga tanitgan va mashhur qilgan adib kim?  
A) Ibroyim Yusupov B) Rasul Hamzatov  
C) Musa Jalil D) O'ljas Sulaymonov
89. Mani aslim erur olamg'a ravshan, Tavallud manzilimdur Istaravshan. Ushbu misralar muallifini toping.  
A) Anbar Otin B) Nodira  
C) Dilshodi Barno D) Uvaysiy
90. Bayt arabcha qanday ma`noni anglatadi?  
A) "vodiy" B) "bay"- "ulush"  
C) "qo'shiq" D) "uy"

